



2025-YIL – “ATROF-MUHITNI ASRASH VA “YASHIL” IQTISODIYOT YILI”

8-DEKABR – O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASI KUNI


Po‘lat o‘tda toblanadi, odam mehnatda

# Metallurg Minbari



O‘zbekiston metallurgiya kombinati aksiyadorlik jamiyatining ko‘p nusxali gazetasi

2024-yil 27-noyabr № 11 (1545)  
Gazeta 1992-yil 7-martdan nashr etilmoqda



Har kim munosib mehnat qilish, kasb va faoliyat turini erkin tanlash, xavfsizlik va gigiena talablariga javob beradigan qulay mehnat sharoitlarida ishlash, mehnati uchun hech qanday kamsitishsiz hamda mehnatga haq to‘lashning belgilangan eng kam miqdoridan kam bo‘lmagan tarzda adolatli haq olish, shuningdek ishsizlikdan qonunda belgilangan tartibda himoyalanih huquqiga ega.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 42-moddasidan

## BAYRAM TABRIGI

# YANGI MARRALAR SARI ILHOMLANTIRADI

### Hurmatli metallurglar, qadrlı hamkasblar va ishlab chiqarish faxriylari!

Sizlarni kirib kelayotgan qutlug‘ ayyom – O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni bilan chin qalbidan samimiy tabriklayman. Ushbu bayram nafaqat har bir fuqaroning asosiy huquq va erkinliklarini, balki hamjihatligimizni, yurtimiz farovonligi va taraqqiyot sari intilishimizni ham ifodalaydi. Konstitutsiya O‘zbekiston kelajagi barpo etiladigan poydevor bo‘lib, uning sharofati bilan biz yuksak natijalarga erishib, ishonch bilan olg‘a qadam tashlamoqdami.

“O‘zmetkombinat” AJ metallurglari uchun bu bayram alohida ahamiyat kasb etadi, chunki bu yil o‘zining 80 yilligini nishonlayotgan kombinatimiz O‘zbekiston iqtisodiy qudratining muhim tayanchlaridan biridir. Mamlakatimizda erishilayotgan yutuqlarda fidokorona mehnat qilayotgan mutaxassislarimizning ham munosib o‘rinlari bor. “O‘zmetkombinat” AJ ishchixodimlari o‘zlarining samarali mehnatlari bilan nafaqat ishlab chiqarish rivojiga, balki O‘zbekiston iqtisodiyotini mustahkamlashga ham hissa qo‘shmoqdalar.

Kombinatimiz mamlakat uchun og‘ir yillarda tashkil etilgan bo‘lib, sakson yildan buyon O‘zbekiston sanoati va iqtisodiyoti rivojiga salmoqli hissa qo‘shib kelmoqda. Fuqarolarning iqtisodiy va ijtimoiy huquqlari mustahkamlangan Konstitutsiyamizda “O‘zmetkombinat” kabi korxonalar faoliyati uchun qulay shart-sharoitlar yaratilgan. Keyingi yillarda mamlakatimizda, jumladan, iqtisodiy va ijtimoiy sohalarida amalga oshirilayotgan konstitutsiyaviy islohotlar doirasida korxonamiz yanada jadal rivojlanish, ilg‘or texnologiyalarni joriy etish, mahsulotlar sifatini oshirish imkoniyatlariga ega bo‘ldi. Bularning barchasi Konstitutsiyada belgilangan huquqiy asoslar tufayli amalga oshdi.

### Hurmatli metallurglar!

O‘zbekiston metallurgiya sanoati doimo mamlakat iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismi bo‘lib kelgan va shunday bo‘lib qoladi. Sizning mehnat faoliyatingiz xalqimiz intilayotgan taraqqiyot va rivojlanish ramzidir. Sifat va xavfsizlikning yuqori andozalariga rioya qilgan holda sidqidildan mehnat qilayotgan, respublikamizning barqaror rivojlanishiga hissa qo‘shayotgan har biringiz bilan faxrlanamiz. Sizning mehnatingiz tufayli mamlakatimizning nafaqat iqtisodiy salohiyati, balki ijtimoiy barqarorligi ham mustahkamlanmoqda.

Konstitutsiya kuni har bir fuqaroning huquqlarini himoya qilish, uning farovon yashashi uchun sharoit yaratish muhimligini eslatib turadi. Inson mehnati va qadr-qimmatı ulug‘langan mustaqil davlatda yashash va mehnat qilish imkoniyatiga aynan Konstitutsiyamiz tufayli erishildi. “O‘zmetkombinat” AJ metallurglarining Vatan farovonligi yo‘lidagi fidokorona mehnati mamlakatimiz iqtisodiy salohiyati oshishi va farovonligini mustahkamlashga xizmat qilayotganiga yorqin misoldir.

### Hurmatli metallurglar, hamkasblar!

O‘zbekiston mustaqilligini mustahkamlash va qudratini yuksaltirish yo‘lida olib borilayotgan zahmatli mehnatingiz rohatini ko‘ring.

Sizlarga mustahkam sog‘liq, farovonlik, tinchlik va yangi muvaffaqiyatlar tilayman. Konstitutsiyamiz mehnat g‘alabalarimiz uchun mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qilsin, bizni yangi marralar sari ruhlantirsin.

### Bayramingiz muborak bo‘lsin!

Dilshod AXMEDOV,  
“O‘zmetkombinat” AJ  
Boshqaruvi raisi – Bosh direktor.

## BUGUNGI SONDA

### KONSTITUTSIYA

Hayotimizda juda muhim ahamiyatga ega 2

### MUROJAAT

Manfaatlar to‘qnashuvi 3

### “O‘ZMETKOMBINAT” AJ

Bayram shukuhi 4-5

### MEHNAT JAMOALARIDA

Ishlab chiqarish quvvati oshirilmoqda 6

### JARAYON

Birovlarning mulkiga ko‘z olaytirmang! 8

### SO‘RAGAN EDINGIZ

Mehnat staji to‘xtatiladimi? 9

### FUTBOL

Hali imkoniyat bor 11

### TAFAKKUR QIL

Nega bunday bo‘ldi? 12



INSONNING SHA'NI VA QADR-QIMMATI DAXLSIZDIR. HECH NARSA ULARNI KAMSITISH UCHUN ASOS BO'LISHI MUMKIN EMAS.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
KONSTITUTSIYASINING 26-MODDASIDAN.

## ASOSIY QONUNIMIZ - BAXTIMIZ QOMUSI

Konstitutsiya fuqarolarning huquq va majburiyatlari majmuasidir. Uni bilib va amal qilib yashash insonning kundalik turmushi va oilaviy farovonligining kalitidir. Asosiy qonunimiz inson huquqlari va davlat suvereniteti g'oyalari bilan sug'orilgan bo'lib, mamlakatimizning yuksak darajada taraqqiy etishiga hamda xalqimiz baxt-saodati, farovon yashashi uchun xizmat qilmoqda.

Bu muhim hujjat o'zbek davlatchiligi rivojining tarixiy tajribasiga tayanib hamda dunyodagi eng rivojlangan davlatlarning bu sohadagi eng mukammal, ilg'or, ma'qbul tizimlaridan kelib chiqilgan holda qabul qilinganligi ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Demokratiya hamda ijtimoiy adolat qaror topgan har qanday davlatda hamisha taraqqiyot, yuksalish, odamlarda buyuk kelajakka ishonch namoyon bo'ladi. O'zbekiston Konstitutsiyasida ham ana shu tamoyillar o'z aksini topgan.

Konstitutsiyaning IX-bob 42-moddasida shunday satrlar bor: "Har kim munosib mehnat qilish, kasb va faoliyat turini erkin tanlash, xavfsizlik va gigiena talablariga javob beradigan qulay



mehnat sharoitlarida ishlash, mehnati uchun hech qanday kamsitishlarsiz hamda mehnatga haq to'lashning belgilangan eng kam miqdoridan kam bo'lmagan tarzda adolatli haq olish, shuningdek ishsizlikdan qonunda belgilangan tartibda himoyalanih huquqiga ega". Bu esa o'z o'rnida har bir yoshni o'z sevgan mutaxassisligini egalashga, vijdonan, halol va qonunlar doirasida ishlash va yashashga o'rgatadi.

Bosh qonunimizdan o'qish, ilim olish, mehnat qilish, vatanni sevish, sog'ligini mustahkamlash, oila hamda fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari ham joy olgan. Shuningdek, har kim qariganda, mehnat qilish layoqatini yo'qotganda, boquvchisidan mahrum bo'lganda ijtimoiy himoya qilinishi ta'kidlangan.

Shu bois ham biz Konstitutsiyamizni baxtimiz qomusi, asosiy qonunimiz deb bilamiz. Unda yurt kelajagi, inson baxt-saodati, farovon hayot o'z aksini topgan. Ha, haqiqatdan ham bu hujjatda fuqarolar tinchligi va milliy totuvligi mujassam etilgan.

**Umumxalq bayramimiz muborak bo'lsin, aziz yurtdoshlar.**

**Akbarali ABDUALIYEV.**

## HAYOTIMIZDA JUDA MUHIM AHAMIYATGA EGA

Konstitutsiya - har bir huquqiy-demokratik davlatning Asosiy qonunidir. Konstitutsiya so'zi lug'aviy jihatdan "Nizom", "Qoidalar to'plami" degan ma'noni anglatadi. Mazmun-mohiyatiga ko'ra, ushbu hujjat mamlakat, uning fuqarolari hayotida juda muhim ahamiyatga ega.



Konstitutsiyaning barcha bo'lim va moddalari mustaqil Vatanimizning milliy qadriyatlarini tiklashga, inson manfaatlarini har tomonlama himoya qilishga, milliy va diniy qadriyatlar va vijdon erkinligini ta'minlashga, oilada mustahkam muhitni ta'minlashga, Vatanimiz milliy-madaniy meroslaridan oqilona va odilona foydalanishini belgilab berishga, millatlar va elatlar, xalqlar o'rtasida o'zaro hamkorlik, bag'rikenglik, do'stona munosabatlarni yaxshilashga va shunga oid ezgu maqsadlarni amalga oshirishga qaratilgandir desam, mubolag'a bo'lmaydi.

Konstitutsiyamizda shaxs, uning huquq va erkinliklari davlatdan ustunligi e'tirof etilgan, shuningdek, unda inson qadri, shaxs erkinligi va hayotini ta'minlovchi tabiiy imkoniyatlarni yuzaga chiqishiga alohida ahamiyat berilgan.

Biz konstitutsiya va u asosda ishlab chiqilgan qonunlarga og'ishmay amal qilsak qudratli davlat qurish bilan birga, xalqimiz farovonligini ta'minlaymiz. Moddiy va ma'naviy muammolarimizga o'rin qolmaydi. Afsuski, qonunlarni hurmat qilish o'rniga uni mensimaydigan, unga rioya qilmaydiganlarning kasriga bugun biz

dunyoning rivojlangan davlatlari qatoridan joy olganimizcha yo'q. Lekin bunday xalqimiz va davlatimiz oyog'iga kishan bo'lganlardan xalos bo'lsak albatta ko'zlangan maqsadimizga erishamiz. Buning uchun Konstitutsiyamizning har bir moddasiga rioya qilishimiz, uni qadrlashimiz shart. Kim bo'lishidan qat'iy nazar Konstitutsiyamizni mensimaydiganlarga oramizda o'rin bo'lmasligi kerak.

Zero, o'z oilasidagi tartib-qoidalarga amal qiladigan, uni hurmat qiladigan farzand boshqalarning ham mana shunday talab-tartiblari borligini anglaydi, ularni hurmat qila biladi. Shu ma'noda Konstitutsiyamiz barchamiz uchun asosiy mezon bo'lishi, uning qoidalari hayotimizning asosiy qoidalari va maqsadlariga aylanishi darkor.

Yurtimizda yashab, faoliyat ko'rsatayotgan har bir ongli inson O'zbekiston Respublikasining Asosiy Qonuni - Konstitutsiyamizning barcha moddalarini mukammal bilishi va hayotga to'g'ri tatbiq qilmog'i, shuningdek, o'ziga yuklatilgan burchlarini sezib, to'laqonli ravishda bajarishi lozim bo'ladi.

**Hasanboy SHOKIROV,  
mehnat faxriysi.**

10-DEKABR - O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING DAVLAT MADHIYASI QABUL QILINGAN KUN

## OLAM UZRA BARALLA YANGRAYVERADI

Davlat ramzlari mamlakatimiz suvereniteti va mustaqilligini ifodalovchi, xalqimizning sha'nu shavkati, g'ururi, or-nomusi, tarixiy xotirasi va orzu-umidlarini o'zida mujassam etuvchi muqaddas timsollardir. Mustaqillikning ilk kunlaridan xalqimizning ozodlik, hurlik singari eng buyuk orzu-intilishlari, ma'naviy qadriyatlarini ifodalovchi, Vatanimiz mustaqilligini mustahkamlash, yurtga sadoqat, bunyodkorlik va yaratuvchanlikka undovchi madhiyani qabul qilishga asosiy e'tibor qaratildi.

1992-yil 10-dekabrda "O'zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi to'g'risida"gi qonun imzolandi. Mazkur qonunda belgilanganidek, madhiyamiz davlat suverenitetining ramzi hisoblanadi, unga zo'r ehtirom bilan qarash har bir fuqaroning vatanparvarlik burchidir. Har tong davlatimiz madhiyasi sadolari ostida

yangi kunni kutib olar ekanmiz, ko'z oldimizda yurtimiz manzaralari namoyon bo'ladi. Uning har bir chuqur ma'noga ega satri, mardonavor ohangi kishini sehrab qo'yadi, qalbimizda Vatanimizdan faxrlanish, bugunimizdan shukronalik va ertamizga ulkan ishonch hissi jo'sh uradi.

Xalqimiz omon ekan mustaqil mamlakatimiz yuksak taraqqiyot, buyuk kelajak barpo etish sari odimlashda davom etadi, madhiyamiz xalqimiz, farzandlarimiz qalbidan chuqur joy olib, olam uzra baralla yangrayveradi. Bu qo'shiq ona Vatanimizdan g'ururlanishga, mustaqilligimizni mustahkamlashga, bugunimizning qadriga yetishga, yangi marralarni zabt etishga undayveradi.

**Ilyos SHUKUROV.**

### DAVLAT MADHIYASI

Serquyosh hur o'lkam, elga baxt, najot,  
Sen o'zing do'stlarga yo'ldosh, mehribon!  
Yashnagay to' abad ilmu fan, ijod,  
Shuhrating porlasin toki bor jahon!

*Naqarot:*

Oltin bu vodiylar - jon O'zbekiston,  
Ajdodlar mardona ruhi senga yor!  
Ulug' xalq qudrati jo'sh urgan zamon,  
Olamni mahliyo aylagan diyor!

Bag'ri keng o'zbekning o'chmas iymoni,  
Erkin, yosh avlodlar senga zo'r qanot!  
Istiqlol mash'ali tinchlik posboni,  
Haqsevar, ona yurt, mangu bo'l obod!

*Naqarot:*

Oltin bu vodiylar - jon O'zbekiston,  
Ajdodlar mardona ruhi senga yor!  
Ulug' xalq qudrati jo'sh urgan zamon,  
Olamni mahliyo aylagan diyor!



# KORRUPSIYANING ASOSIY OMILI BU MANFAATLAR TO'QNASHUVIDIR

## Aziz metallurqlar, qadrlı hamkasblar!

"O'zmetkombinat" AJ yuksak marralarni ko'zlab faoliyat yuritib, investitsiya loyihalari asosida yangi quvvatlarni ishga tushirish uchun jadal sur'atlarda bunyodkorlik ishlarini olib bormoqda. Maqsadimiz ishlab chiqarilayotgan tayyor mahsulotlar turi va sifatini oshirib, kombinatimizni jahon bozorida o'zining mustahkam o'rniga ega bo'lgan, zamonaviy sanoat korxonalariga qatoridan joy olishiga erishishdir. Bu maqsadlarga erishishimizda kombinatimizda manfaatlar to'qnashuvi va korrupsiya kabi illatlarga barham berish eng dolzarb masalalardan biridir.

Korrupsiyaning asosini tashkil qiluvchi asosiy omillardan biri ham manfaatlar to'qnashuvidir. Manfaatlar to'qnashuvi korrupsiyaning rivojlanishiga doimiy ravishda o'zining hissasini qo'shib boruvchi har qanday davlatning, korxonaning taraqqiyotiga to'g'onoq bo'luvchi, ijtimoiy hayot barqarorligiga tahdid soluvchi xavfli illatdir.

Agar bu illatlarning oldi olinmasa, butun davlatda bo'lganidek, kombinatimizda ham haqiqiy ishbilarmonlik va investitsiya muhitini yaratib bo'lmaydi. Kombinatimiz iqtisodiy tomondan rivojlanmaydi va bu isbot talab qilmas haqiqatdir.

Manfaatlar to'qnashuvi bor joyda esa faqat orqaga yurish kuzatiladi, korxonalar mablag'lari talon-taroj qilinadi, adolatsizlik ko'payadi, o'zaro ishonch so'nadi.

Shu sababli, manfaatlar to'qnashuvini ijobiy hal qilish hozirgi davrda korrupsiyaga qarshi kurashning muhim vazifalaridan biri bo'lib turibdi.

Ushbu vazifani hal qilish maqsadida joriy yilning 5-iyun sanasida O'zbekiston Respublikasining "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi Qonuni qabul qilindi. Davlat organlari va davlat ulushi 50 foizdan ortiq tashkilotlarga nisbatan tatbiq etiladigan bu

Qonunning maqsadi manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Mazkur Qonunning qabul qilinishi davlat idoralarida korrupsiyaviy omillarning kamayishiga, davlat tashkilotlarida manfaatlar to'qnashuvining oldini olishga xizmat qiladi.

Qonunda manfaatlar to'qnashuviga quyidagicha ta'rif berilgan: "Manfaatlar to'qnashuvi – shaxsning shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorligi uning o'z lavozim yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta'sir ko'rsatayotgan yoxud ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari, qonuniy manfaatlari o'rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan vaziyat". Qonun bilan manfaatlar to'qnashuvi tushunchasi, davlat xizmatchilarining majburiyatlari hamda uni tartibga solish bo'yicha aniq mexanizmlar belgilangan.

Manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solishning asosiy tamoyillari qonuniylik, fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning va davlatning qonuniy manfaatlari ustuvorligi, ochiqlik va shaffoflik, xolislik, korrupsiyaga nisbatan murosasizlikdir. Biz – kombinat rahbar va xodimlari ham ushbu tamoyillarga qat'iy rioya qilib o'z vazifalarimizni bajarishimiz shart. Bu Qonun rahbar va xodimlarning lavozim yoki xizmat majburiyatlarini samarali bajarishga shart-sharoit yaratib, shuningdek, ishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan suiiste'molliklarni bartaraf etish, davlat tashkilotlariga va korxonalariga nisbatan aholining ishonchi oshishiga xizmat qiladi. Har birimiz manfaatlar to'qnashuvi holatlarining oldini olish va tartibga solish bo'yicha mas'ul ekanimizni unutmasligimiz zarur.

Davlat fuqarolik xizmatchisi lavozim majburiyatlarini yoki xizmat vakolatlarini bajarish

chog'ida manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelgan taqdirda, o'z ish yurituvidagi hujjatlar bo'yicha qaror qabul qilinguniga qadar o'zining bevosita rahbariga yoki maxsus bo'linmaga xabar berishi lozimligi Qonunda belgilangan.

Shunday ekan barcha rahbar va xodimlar o'ziga ma'lum bo'lgan manfaatlar to'qnashuvi hollari to'g'risida xabar berishi kerak. Bunday holatlarni bilgan holda unga e'tiborsizlik qilish, mutasaddilarga xabar bermaslik javobgarlikka olib keladi.

Manfaatlar to'qnashuvini samarali boshqarish mansabdor shaxslar va xodimlar o'rtasida korrupsiyaga qarshi murosasizlik madaniyatini yaratishni ham talab qiladi. Axloqiy tayyorgarlik kasbiy tayyorgarlikning majburiy qismi bo'lishi kerak, bunda manfaatlar to'qnashuvi qabul qilib bo'lmaydigan deb qaraladigan va zudlik bilan hal qilinishi kerak bo'lgan muhitni yaratishga yordam beradi.

## Aziz metallurqlar, qadrlı hamkasblar!

Barchangizdan lavozim va xizmat vakolatlarini, majburiyatlarini halol bajarishga, ularning bajarilishiga ta'sir ko'rsatadigan yoki ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan shaxsiy manfaatlar bilan bog'liq har qanday korrupsiyaviy harakatlardan o'zingizni to'xtatishni so'rayman. Biz hamkorlikda kombinatda manfaatlar to'qnashuvi va korrupsiyaga olib keladigan yoki olib kelishi mumkin bo'lgan shaxsiy manfaatdorlikning oldini olishimiz kerak.

Manfaatlar to'qnashuvi va korrupsiyaning oldini olish maqsadida kombinatning barcha mansabdor shaxslari va xodimlari o'z mansab vakolatlarini suiiste'mol qilmagan holda ishlashsa, nafaqat kombinatimiz, balki yurtimiz va jamiyatimiz rivojlanishiga ham o'z hissalarini qo'shgan bo'ladilar.

**Dilshod AXMEDOV,**  
"O'zmetkombinat" AJ  
Boshqaruv raiisi – Bosh direktor.

## SAMARA VA TEJAMKORLIK – DOLZARB MASALA

Og'ir sanoat korxonalarining samarali faoliyatini energetika resurslarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Yildan-yilga tabiiy resurslarning kamayib borishi va elektr energiyasiga bo'lgan talabning ortishi kuzatilayotganda, uning samaradorligi va tejamkorligi ham o'ta muhim vazifalar qatoridan joy olgan.

"O'zmetkombinat" AJning Bosh energetik xizmati tomonidan tarkibiy bo'linmalarni energetika resurslari bilan barqaror ta'minlash barobarida ushbu manbadan samarali va tejamkorlik bilan foydalanish chora-tadbirlari amalga oshirilmoqda.

Kombinatimizning Energetika, Elektr tarmoqlari va podstansiyalar, Kislorod-kompressor, Energetika tarmoqlarini ta'mirlash, Elektr uskunalarni ta'mirlash bo'linmalari, Elektrotexnika hamda Texnologik jarayonlarni avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari laboratoriyalari o'zlarining mas'uliyatli vazifalarini ko'ngildagidek bajarib kelayaptilar.

Ushbu tarkibiy bo'linmalar kombinatni elektr energiyasi bilan uzluksiz ta'minlash maqsadida asosiy ishlab chiqarish bo'linmalarida rejali, joriy va mukammal ta'mirlash ish-

larini o'z vaqtida amalga oshirib, yuqori voltli kabel liniyalariga xizmat ko'rsatish va boshqa ishlarini o'z vaqtida ado etishmoqda.

Energiya resurslaridan unumli foydalanishda binolarning energiya ta'minoti yoki ishlab chiqarish jarayonlari uchun kamroq energiya sarflash evaziga kerakli natijaga erishish ham samaradorlik ko'rsatkichi hisoblanadi. Texnika va texnologiya rivojlanishining hozirgi darajasida yoqilg'i-energetika resurslaridan foydalanishda iqtisodiy jihatdan asoslangan samaradorlikka erishish hamda atrof-muhitni muhofaza qilish talablariga rioya qilish ham shular jumlasidan. Buni yaxshi bilgan kombinat energetiklari energiya samaradorligini oshirish va xarajatlarni kamaytirish uchun ichki imkoniyatlardan ham unumli foydalanishga harakat qilmoqdalar.

Soha rivojiga o'zining boy bilim va tajribasi, kamtarin va samarali mehnatini qo'shayotgan, insoniy fazilatlarini, mehnatsevarligi bilan katta obro'-e'tibor qozongan, fidoyi energetiklarimizni 22-dekabrda nishonlanadigan kasb bayramlari bilan tabriklaymiz.





## “O‘ZMETKOMBINAT” AJNING 80 YILLIGI TANTANALARIDA YUBILEY PO‘LAT ERITMASI OLINDI

Bu yil “O‘zmetkombinat” AJ ishga tushganligiga 80 yil to‘ldi. Bu yubiley kombinatda tantanali va keng tarzda bayram qilindi. Bayram tadbirlarining asosiy qismi 4-noyabr kuni o‘tkazildi.

Shu kuni metallurklar madaniyat Saroyi hovlisida ertalabdan kombinatda ko‘p yillar ishlagan, bugun pensiyada bo‘lgan mehnat faxriylari to‘planishdi. Ular Metallurklar madaniyat saroyidan avtobusda kombinat tarixi muzeyiga yo‘l oldilar.

Muzeyda ular O‘zbekiston metallurgiya kombinatining qurilishi va rivojlanishi tarixi bilan atroflicha tanishdilar. Muzey eksponatlari bilan tanishish jarayonida mehnat faxriylari va ishlab chiqarish ilg‘orlariga kombinatning Markaziy Osiyoda qora metall prokatlari ishlab chiqarish bo‘yicha yirik korxonaga aylanish jarayonlaridagi faoliyati, uning tarixi haqida qiziqarli ma‘lumotlar berildi.

Faxriylarning ko‘pchiligi o‘tgan yillar fotosuratlarini va stendlarini ko‘rib, kombinatdagi ishlagan davrlarini yodga olishdi, uning yangi yutuqlaridan quvonishdi. Kombinatarixi muzeyini tomosha qilganlaridan so‘ng mehmonlar maxsus tayyorlangan kiyimlarni



Tadbirda barcha ishlab chiqarish faxriylari va faxriy mehmonlarga esdalik sovg‘alari topshirildi.

Shundan so‘ng “O‘zmetkombinat” AJning 80 yilligiga bag‘ishlangan yubiley po‘lat eritilishi tantanasi bo‘lib o‘tdi.

Ma‘lumki, bundan 80 yil avval – 1944-yil 5-mart kuni 1-sonli marten pechida dastlabki metall eritilgan kun O‘zbekiston metallurgiya zavodi dunyoga kelgan sanaga aylandi. Shu kuni Birinchi o‘zbek po‘lati eritmasi olishda qatnashganlar – Kostyanov, Gilyazetdinov, Shelovanov, Jilyev, Mayshev, Timonin, Shtirov, Petrov, Averkova, Lukyanchenko, Grudinin, Gordeev kabi tajribali rus va ukrain



Doniyor Sherqo‘ziyev, Murod Mo‘minovlardan iborat elektrda po‘lat erituvchilar brigadasi tomonidan tayyorlandi.

Barcha ishtirokchilar yubiley po‘lat eritmasi olinishini diqqat bilan kuzatib borishdi. Ko‘p yillik mehnat faoliyatini kombinatga bag‘ishlagan faxriylar po‘lat eritish jarayonini o‘zgacha hayajon bilan kuzatdilar. Ularning ko‘z o‘ngida o‘zlari ishlagan vaqtlari xotiralaridan qaytadan gavalangan bo‘lsa ajab emas.

– Mehnat fahriylariga korxonada ma‘muriyati, kasaba uyush-

metallurglarnikidan qolishmaydi. Bizning ishimizni munosib avlod vakillari davom ettirayotganidan xursandmiz.

Yubiley po‘lat eritmasi olish tantanalaridan so‘ng bayram tadbiriga taklif etilganlar bayram dasturxonini ustida suhbatlarini davom ettirdilar.

Shu kuni bayram munosabati bilan kombinatda 1 tonna 300 kg. osh damlanib, barcha tarkibiy bo‘linmalar oshxonalarida ishchi-xodimlarga tarqatildi.



kiyib, Elektrda po‘lat eritish bo‘linmasiga yo‘l olishdi.

Elektrda po‘lat eritish bo‘linmasi hovlisida birinchi o‘zbek po‘lat eritmasi tayyorlanganligiga 80 yil to‘lishi munosabati bilan tantanali yig‘ilish o‘tkazildi.

“O‘zmetkombinat” AJ Boshqaruvi raisi – bosh direktori Dilshod Axmedov yig‘ilganlarni bayram bilan tabrikladi. U o‘z tabrigida kombinatda erishilgan yutuqlarni ta‘kidlab o‘tdi, bekobodlik metallurklar va ishlab chiqarish faxriylariga korxonada va butun mamlakat iqtisodiyotini yuksaltirishga qo‘shgan hissasi uchun minnatdorchilik bildirdi.

O‘zbekiston Respublikasi Konchilik va metallurgiya sanoati faxriylari kengashi Bekobod filiali raisi Ilhom Qurbonov, mehnat faxriysi O‘ktam To‘raqulov ham so‘zga chiqdilar.

po‘lat erituvchilari hamda g‘ayratli va shijoatli mahalliy yoshlardan Hofiz G‘aniyev, Anvar Toshpo‘latov, Yigitali Mavlonov, Ibrohim Husnitdinov, Abdurahim Ortiqov, Tojiali Akbarov, Chingiz Mahmudov, Ahmed Ataulin, Obid Xojimatov, Olim Mirzayev, Erali Jaxayev, Azim Ahmedov, Yedige Kulmirzin, Asad Ergashev, Sherali Hamroqulov kabilar bevosita marten pechi oldida ishlash va O‘zbekistonning dastlabki po‘latini eritishda ishtirok etish sharafiga muyassar bo‘lgan edilar. Bugun ularning nomi “O‘zmetkombinat” AJ tarixidan joy olgan.

“O‘zmetkombinat” AJning 80 yilligiga bag‘ishlangan yubiley po‘lat eritmasi esa smena boshlig‘i Baxtiyor Pirmatov, smena ustasi Narzullo Jiyonov, po‘lat erituvchi Oybek To‘raqulov, po‘lat erituvchi yordamchilari Adham Burgutboyev, Xayot Ashurov, Akmal Sharipov,



masi qo‘mitasi tomonidan ko‘rsatilayotgan g‘amxo‘rliklardan xursandmiz, – deydi ko‘p yillar shu metallurklar jamoasida ishlagan, o‘z davrining eng taniqli po‘lat erituvchilaridan biri bo‘lgan mehnat fahriysi Mamajon Yodgorov.

– Keksalarni bo‘layotgan turli tadbirlarga taklif qilib turilishi,

Tushdan so‘ng bayramning davomi “Metallurg” markaziy stadionida davom etdi.

Mamlakatimizning taniqli san‘atkorlari konsert dasturilarini namoyish etib, bekobodlik metallurklar xizmatida bo‘lishdi.

**Diyor ZULFIQOROV.**



## "O'ZMETKOMBINAT" AJNING 80 YILLIGI TANTANALARIDA BAYRAM KO'TARINKI KAYFIYATDA O'TDI

"O'zmetkombinat" AJ tarixi respublikamizda qora metall parchalarini qayta ishlash, po'lat eritish va prokat mahsulotlari ishlab chiqaradigan mutlaqo yangi tarmoqning yaratilishi hamda yirik ishlab chiqarish quvvatlari va zamonaviy Bekobod shahrining paydo bo'lishi bilan bevosita bog'liqdir. Bu tarix zamirida shonli an'analarni munosib davom ettirayotgan, butun bilim va tajribasi, mahorati, qalb qo'ri o'z ishiga baxshida etib, fidokorona mehnat qilayotgan ming-minglab odamlarning juda katta mashaqqatli xizmatlari mujassam.

Bugungi kunda yurtimiz taraqqiyotining yangi bosqichida sanoat va iqtisodiy salohiyatini har tomonlama rivojlantirishga ustuvor ahamiyat qaratilmoqda. Kombinat misolida oladigan bo'lsak, bu borada keng hajmli ishlar amalga oshirilmogda. Birgina Quyuv-prokatlash majmuasining qurilishi korxonada faoliyati uchun katta imkoniyatlar yaratib bermoqda. Bu majmua ishga tushishi bilan kombinatda mahsulotlar ishlab chiqarish ikki baravarga oshishi bilan birga, mamlakatimiz turdosh korxonalari orasida minglab ish o'rinlari yaratiladi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirishga, rivojlanishiga munosib hissasini qo'shib kelayotgan "O'zmetkombinat" AJ mehnat jamoasi uchun mehnatdan tashqari madaniy



dam olishlarini, ajoyib bayram tantanalarini tashkil etishda ham boshqalarga namuna bo'ladigan tadbirlarni tashkil etishga odatlangan.

Kombinatning 80 yilga to'lishi munosabati bilan o'tkazilgan bayram tadbirlari ham shular jumlasidandir. 4-noyabr kuni tushdan so'ng "Metallurg" markaziy stadionida O'zbekiston metallurgiya kombinatining 80 yilligiga bag'ishlangan katta bayram tadbiri bo'lib o'tdi. Shu kuni tushdan so'ng markaziy stadiona minglab muxlislar to'planib yurtimizning sevimli va mashhur san'atkorlarining bayram dasturini maroq bilan tomosha qildilar.

Tadbirda Toshkent viloyati, Bekobod shahri hokimligidan vakillar, mehmonlar, "O'zmetkombinat" AJ rahbariyati, metallurglar oila a'zolari bilan, hamshaharlarimiz tashrif buyurdilar. Kombinat ishchi va xizmatchilari hamda Bekobod ahli uchun zo'r bayram dasturi taqdim etildi.

San'atkorlarning chiqishlari oldidan "Metallurg" markaziy stadioniga o'rnatilgan sahnaga metallurglarni tabriklash uchun Toshkent viloyati hokimi Zoir Mirzayev taklif etiladi. Viloyat hokimi "O'zmetkom-

binat" AJning mamlakat iqtisodiy taraqqiyotida tutgan o'rni yuksak ekanini ta'kidlab, barchani korxo-

ko'ringan va talab yuqori bo'lgan xonandalar Shohruhxon, Bunyodbek Saidovlar, Jahongir Foziljonov, Zohirshoh Jo'rayevning chiqishlari yig'ilganlarda unutilmas taassurotlar qoldirdi.

"O'zmetkombinat" AJning 80 yilligiga bag'ishlangan gala-konsert yakunida Bekobod osmoni uzra otilgan mushakbozlik tantanali marosimga yanada mahobat bag'ishladi. Muxlislar metallurglar bayrami tantanalaridan katta taassurot olishdi. Bekobodliklar, shahrimiz mehmonlari shunday ajoyib bayramni uyushtirgan metallurglar jamoasidan, qolaversa kombinatni qo'llab-quvvatlayotgan, uni taraqqiyot sari olib borayotgan davlatimizdan juda minnatdor bo'lishdi.



namizning 80 yillik yubileyi bilan tabrikladi. Kombinat rahbar va bosh mutaxassislarini taqdirledi.

Shundan so'ng bayram tadbirining badiiy qismi boshlandi. Gala-konsertni "Tarona" raqs dastasining bayramona chiqishlari bilan boshlab berildi.

Elimizning suyuqli xonandalari O'zbekiston xalq artistlari Yulduz Usmonova, Nasiba Abdullayeva, qo'shiqchilar orasida ko'zga

## "KOMBINAT RAVNAQIGA HISSA QO'SHGANLIGI UCHUN"

"O'zmetkombinat" AJning 80 yilligi munosabati bilan ko'p yillardan buyon mehnat qilib kelayotgan ishchi-xodimlarni rag'batlantirish maqsadida kombinat boshqaruvi tomonidan "Kombinat ravnaqiga hissa qo'shganligi uchun" ko'krak nishoni ta'asis etilgan edi.

Ushbu ko'krak nishoni uchta darajadan iborat. Ulardan eng yuqorisi – birinchi darajali ko'krak nishonini olish uchun kombinatda kamida 35 yil ish stajiga ega bo'lish kerak. Ikkinchi darajali ko'krak nishonini olish uchun kamida 25 yil, uchinchi darajali ko'krak nishoni olish uchun kamida 15 yil ish staji talab qilinadi.

Ayni kunlarda kombinat tarkibiy bo'linmalarida ko'plab ishchi-xodimlar fidokorona mehnatlari va kombinatni rivojlantirishdagi qo'shgan xizmatlari uchun bu ko'krak nishoni bilan mukofotlanmoqda.

Bu tadbirlarda kombinat va tarkibiy bo'linmalar, kasaba uyushmasi qo'mitasi rahbarlari ishtirok etib, ishchi-xodimlarga "Kombinat ravnaqiga hissa qo'shganligi uchun" ko'krak nishonini tantanali suratda topshirmogdalar.

**Ismoil UMMATOV.**



# ISHLAB CHIQUARISH QUVVATI OSHIRILMOQDA

**Zoldir prokatslash bo'linmasi "O'zmetkombinat" AJning 80 yilligi yubileyini mehnatda munosib yutuqlar bilan kutib oldi. Mehnat jamoasi zimmalaridagi reja-topshiriqlarni ziyodiga bajarish bilan birga yildan yilga ko'p mahsulot ishlab chiqarmoqda.**

Bo'linmada oktabr oyida 21 500 tonna o'rniga 22 884 tonna prokat mahsulotlari ishlab chiqarildi. Bu boradagi belgilangan oylik reja 106, 4 foizga bajarildi. Yil boshidan buyon esa prokatchilar 207 900 tonna o'rniga 208 296 tonna mahsulotlar ishlab chiqarishdi. 10 oylik reja 100, 2 foizga uddalandi.

Bo'linmada bugungi kunda mamlakatimizning konchilik va metallurgiya sanoati uchun eng zarur bo'lgan po'lat zoldirlar ishlab chiqarishda ham yaxshi natijalarga erishildi. Yil boshidan buyon ishlab chiqarilgan mahsulotlarning 206 172 tonnasi po'lat zoldirlardir. O'tgan yil shu davriga nisbatan o'sish surati 101, 7 foizni tashkil etdi.

– Bo'linmamizda ko'plab o'z kasbining ustalari mehnat qilishadi, – deydi biz bilan suhbatda navli stan katta ustasi Omon Alimatov. – Valsalovchilar Solijon Allaberdiyev, Shavkat Sotiboldiyev, Akram Isroilov, operator Mirmuhsin Saburov, chilangarta'mirlovchi Qahramon Qo'chqorov kabilar mehnatda hamkasblariga namuna bo'lishmoqda.

Po'lat zoldirlar Olmaliq va Navoiy kon-metallurgiya kombinatlarida rudani maydalashda, shuningdek, sement sanoatida ishlatiladi. So'nggi yillarda, bu korxonalarining, ayniqsa, Olmaliq kon-metallurgiya kombinatining mahsulotlarimizga bo'lgan ehtiyoji oshib bormoqda. Shuning uchun ham Zoldir prokatslash bo'linmasida bosqichma-bosqich rekonstruksiya ishlari olib borilmoqda.

– Bugungi kunda bo'linmamiz yiliga 250 ming

tonna po'lat zoldirlar ishlab chiqarish quvvatiga ega. Kelgusi yil bu quvvat 350 ming tonnaga yetkazilishi uchun rekonstruksiya ishlari boshlab yuborilgan, – deydi Zoldir prokatslash bo'linmasi boshlig'i o'rinbosari To'lqin Nosirov. – Prokatchilarimiz o'z vazifalarini sidqidildan bajarib kelayaptilar. Bo'linmamiz mexanigi Abdulkarim Mirzayev, bo'linma elektrigi Farhod Jalilov, stan ustasi Ikrom Qambarov, elektriklar ustasi Javohir Sultonov, usta vazifasini bajaruvchi Xayrullo Polvonboyev va boshqalar jamoamizda erishilayotgan muvaffaqiyatlarga munosib ulushlarini qo'shib kelishmoqda.

Po'lat zoldirlari ichki iste'molchilardan tashqari Tojikistonga ham eksport qilindi. Bo'linmada tayyorlanayotgan po'lat zoldirlar sifati yuqoriligi uchun ham ular eksportga yo'llanmoqda. Natijada bu mahsulotlarga bo'lgan talab bundanda oshishi

mumkin.

Zoldir prokatslash bo'linmasida mehnat sharoitlarini yaxshilash, mehnat samaradorligini oshirish va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish bo'yicha bir qator salmoqli ishlar amalga oshirildi. Avvalo 1-qizdiruv pechi rekonstruksiya qilindi. Bu rekonstruksiya tufayli sexda yiliga 250 ming tonna po'lat zoldirlar ishlab chiqarish quvvatiga erishilgan edi. Shuningdek, mahsulotlar ishlab chiqarish oshishi bilan birga ularning tannarxi ham arzonlashtirilib borildi.

Ayni paytda bo'linmada ishlab chiqarish quvvatini yana 100 ming tonnaga oshirish ishlari boshlangan. Buning uchun yangi texnika va jihozlar o'rnatilish uchun joy tayyorlandi. Yangi stan va pech olib kelib o'rnatilganidan so'ng bo'linmada po'lat zoldirlar ishlab chiqarish quvvati yanada oshadi.

**Diyor ZULFIQOROV.**



## CHIROYLI, BEJIRIM VA XARIDORBOP

*Xalq iste'moli mollari ishlab chiqarish bo'linmasi xaridorbop, xalq ehtiyojiga mos sirlangan idishlar tayyorlab kelmoqda. Bugungi kunda bo'linmada 250 dan ziyod turdagi sirlangan po'lat idishlar ishlab chiqarilmoqda. Yillik ishlab chiqarish quvvati esa 3200 tonna mahsulotni tashkil etmoqda. So'nggi yillarda sirlangan idishlarning jahon bozorlaridan mustahkam joy olishiga katta e'tibor qaratib kelinmoqda.*



Bo'linmada ishlab chiqarilayotgan sirlangan po'lat idishlar sifati va bejirimligi bilan jahon bozorida o'z o'rnini mustahkamlab bormoqda. Joriy yilning oktabr oyida sirlangan po'lat idishlar Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston, Qirg'iziston, Moldova, Bolgariya kabi davlatlarga eksport qilingan. 2024-yil boshidan buyon esa Germaniya, Turkmaniston, Tojikiston, Latviya, Chexiya, Ozarbayjonga ham sirlangan po'lat idishlar eksport qilingan.

Bo'linma mehnat jamoasi zimmalaridagi vazifalarga mas'uliyat bilan yondoshib, topshiriqlarni o'z vaqtida va sifatli bajarib kelmoqda.

O'tgan oyda bo'linmada 280 tonna o'rniga

281, 1 tonna mahsulot ishlab chiqarilib, belgilangan reja 100, 5 foizga ado etildi.

Oktabr oyida 11 200 000 ming o'rniga 11 648 769 ming sumlik amaldagi narxlardagi sirlangan idishlar ishlab chiqarildi. Reja 104 foizga bajarildi.

– Erishilayotgan mehnat natijalarida bezakchilarimiz ham munosib hissalarini qo'shib kelayaptilar, – deydi biz bilan suhbatda bezaklash bo'limi smena ustasi Feruza Bozorova.

– Bezaklovchilarimizdan Gulbahor Musayeva, Muhabbat Mamatuzoqova, sirlovchi Ibodat Madaminova va boshqalarning mehnatlarini alohida tahsinga loyiq.

Xalq istemoli mollari ishlab chiqarish bo'linmasida bo'lganimizda mehnat jamoasi



yaxshi kayfiyatda mehnat qilayotganligiga amin bo'ldik. Ular rejalarini oshirib bajarish bilan birga agar xomashyo bo'lsa bundanda ko'p mahsulotlar ishlab chiqara olishlarini ta'kidlab o'tishdi.

Erishilayotgan yutuqlarda Sirlash uchastkasi katta ustasi Nuriddin Usmonov rahbarligidagi sirlangan idishlarga qayta ishlov beruvchilar ham katta ulushlarini qo'shib kelayaptilar. Sirlangan idishlarga qayta ishlov beruvchilar Munira Ismoilova, Sayyora Jo'rayeva, Muqaddas Po'latova, sirlovchilar Dilorom Urunova, Dilafroz Mannopova kabilar o'z vazifalarini namunali bajarib, hamkasblariga o'rnak ko'rsatmoqdalar.

**Nuriddin MAQSUDOV.**



## AKSIYADORLAR KENGASHIB OLISHDI

Joriy yilning 5-noyabr kuni Metallurglar madaniyat saroyida "O'zmetkombinat" AJ aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi bo'lib o'tdi. Yig'ilishda kombinat Kuzatuv kengashi a'zosi, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi direktori o'rinbosari A.Miraliyev raisligida bir qator muhim masalalar muhokama qilindi. Shu jumladan, aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishining reglamentini va sanoq komissiyasi tarkibini tasdiqlash, "O'zmetkombinat" AJ Kuzatuv kengashi tarkibiga o'zgartirish kiritish, "O'zmetkombinat" AJ Ijroiya organi rahbarini tayinlash masalalari bo'yicha korporativ munosabatlar boshqarmasi boshlig'i Sh.Abdurahmonova ma'ruza qildi.

"Quyuv prokatlash majmuasi qurilishi" loyihasi rahbari S.Chaykovskiy mazkur loyiha qurilishi doirasida ma'qullangan yirik bitim shartlariga o'zgartirish kiritish masalasida axborot berdi. "O'zmetkombinat" AJning yangi tahrirdagi tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash masalasida aksiyadorlarga Xodimlar va tashkiliy rivojlanish direksiyasi direktori N.Pleskachevskaya ma'ruza qilib, mazkur o'zgartirishlar mohiyati va maqsadi haqida ma'lumot berdi.

Yig'ilish kun tartibiga kiritilgan barcha masalalar yuzasidan tegishli qarorlar qabul qilindi.

Ob-havo sovushi bilan isitish moslamalariga bo'lgan ehtiyojning oshishi yong'in xavfining ortishiga sabab bo'ladi. Yong'inlar bilan bog'liq baxtsiz hodisalarning oldini olish maqsadida yurtimizda joriy yilning 15-noyabridan 15-dekabriga qadar "Yong'in xavfsizligi oyligi" o'tkazilmoqda.

## "YONG'IN XAVFSIZLIGI OYLIGI"NI NAMUNALI O'TKAZAYLIK!

Tadbirdan ko'zlangan asosiy maqsad iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy soha ob'ektlari, shuningdek, aholi turar-joylarining yong'in xavfsizligini ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlarni jadalashtirish va bu ishlarda fuqarolarning ishtirokini ta'minlashdan iborat. "O'zmetkombinat" AJ mehnat jamoalari ham bu tadbirlarda faol ishtirok etayaptilar. Kombinatda "Yong'in xavfsizligi oyligini o'tkazish to'g'risida" buyruq qabul qilingan. Bu buyruq asosida "Yong'in xavfsizligi oyligi"ni yuqori saviyada o'tkazish chora-tadbirlari belgilab olindi.

Jumladan kombinat tarkibiy bo'linmalari rahbarlari 1-dekabrgacha ishchi-xodimlar bilan yong'in xavfsizligi talablari to'g'risida navbatdan tashqari yo'l-yo'riqlar o'tkazilmoqda. Bu haqda metallurglarning mehnat muhofazasi bo'yicha shaxsiy kitobchalarida qayd etiladi. 5-dekabrgacha kombinat bo'linma va uchastkalarida gaz, elektr va isitish asboblarning yong'in-ga qarshi holatlari tekshirilmoqda. 10-dekabrgacha yong'inga qarshi suv ta'minoti (gidrant, sig'im, suv havzalari, ichki yong'in kranlari) soz holatga keltirish choralari ko'riladi.

Shuningdek, oylik davomida kombinatning bo'linma va uchastkalarida o'rnatilgan yong'in-himoya xabarlovchilari tizimi va yong'inni avtomatik o'chir-

ish tizimlarining ishchi holati, barcha qozonxonalarda dudbo'ronlar holati va is gazi mavjudligi nazoratdan o'tkaziladi. Yong'in xavfsizligini ta'minlash masalalari qoniqsiz hal etilayotgan bo'linma va uchastkalarida "O'zmetkombinat" AJning FVvaRXB hamda YOXTTEB tomonidan birgalikda reydlar o'tkazilmoqda. Tekshiruvlar davomida aniqlangan kamchiliklarni joyida bartaraf etish choralari ko'riladi.

"Yong'in xavfsizligi oyligi" doirasida favqulodda vaziyatlar va yong'inlarning oldini olish hamda bunday holatlarda to'g'ri harakat qilishga qaratilgan targ'ibot-tashviqot ishlari olib borilmoqda.

Ana shunday tadbirlardan biri 15-noyabr kuni "O'zmetkombinat" AJning Elektrda po'lat eritish bo'linmasi hovlisida bo'lib o'tdi. Unda mutaxassislar birinchi galda aholining yong'in xavfsizligi bo'yicha bilim va ko'nikmalarini oshirish hamda ularda shaxsiy xavfsizlik madaniyatini shakllantirish, iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha ob'ektlari hamda uy-joylarni yong'in xavfsizligi talablariga muvofiq holga keltirish asosiy maqsad ekanligi haqida tushunchalar berib o'tildi.

"O'zmetkombinat" AJda "Yong'in xavfsizligi oyligi" doirasidagi tadbirlar qizg'in davom etmoqda.

### Favqulodda vaziyatlar va radiatsiya xavfsizligi bo'limi.



### 3-DEKABR - XALQARO NOGIRONLAR KUNI

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 1992-yil 14-oktabrdagi qarori bilan 3-dekabr Xalqaro nogironlar kuni, deb e'lon qilingan. Ushbu sana butun dunyo bo'ylab keng nishonlanadi va bundan asosiy maqsad aqlan va jismonan nuqsoni bo'lgan fuqarolarni har tomonlama qo'llab-quvvatlashdan iborat.

## EZGULIK VA MEHR-OQIBAT

Xalqimiz azal-azaldan yordamga muhtoj, imkoniyati cheklangan insonlarga e'tibor va g'amxo'rlik ko'rsatishni jamiyatda tinchlik, do'stlik, bag'rikenglik va hamjihatlikni mustahkamlashga xizmat qiladigan eng muhim qadriyatlardan biri sifatida e'zozlab keladi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada mehnatga layoqatsiz va yolg'iz keksalar, nogironligi bo'lgan shaxslar hamda aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand boshqa toifalarining huquqlari davlat himoyasida ekanligi, davlat nogironligi bo'lgan shaxslarning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalar ob'ektlari va xizmatlaridan to'laonli foydalanishi uchun shart-sharoitlar yaratishi, ularning ishga joylashishiga, ta'lim olishiga ko'maklashishi, ularga zarur bo'lgan axborotni to'sqinliksiz olish imkoniyatini ta'minlashi belgilab qo'yilgani yurtimizda inson manfaatlarini hamma vaqt davlatning e'tiborida ekanligidan dalolat beradi.

Bekobod shahar nogironlar jamiyatida 2045 nafar imkoniyati cheklanganlar ro'yxatda turadi. Ularga imkoniyat darajasida moddiy va ma'naviy ko'mak ko'rsatib kelinmoqda. Imkoniyati cheklangan fuqarolarga homiylik yordami ko'rsatilishida "O'zmetkombinat" AJ ham hissasini qo'shib kelyapti. Metallurglar Bekobod shahar nogironlar jamiyatiga - bolalar uchun yangi yil sovg'asi ajratilishiga, bayram dasturxonini tashkil etilishiga yordam ko'rsatgan. Ayniqsa, 2022-yilda kombi-

nat tomonidan shahrimizdagi nogironlarga ko'rsatilgan beg'araz yordamni haligacha chuqur minnatdorchilik bilan eslaymiz.

Elektrda po'lat eritish bo'linmasi ro'parasida joylashgan sobiq kasb hunar-bilim yurtining eski binosi kombinat tomonidan sotib olinib, saxovatpeshalar tomonidan mukammal ta'mirlangan edi. So'ng bu binodagi xonalar nogironlar, ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lgan keksalardan 60 nafariga bepul berilgan edi.

Imkoniyati cheklangan, moddiy va ma'naviy ozuqaga muhtoj bo'lgan insonlarning qalblariga xursandchilik kirigizayotgan barcha saxovatpeshalardan minnatdormiz.

Bu yil ham 3-dekabr - Xalqaro nogironlar kuni munosabati bilan imkoniyati cheklanganlar uchun bayram dasturxonini yoziladi. Homiylik tomonidan uydan chiqolmaydiganlarga sovg'a olib boriladi. Saxovatpeshalarning ularga ma'naviy va moddiy yordam ko'rsatilishi e'tibor markazida turadi.

Xalqaro nogironlar kuni mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotida mustahkam o'rin egallab, jamiyatimizda ezgulik, mehr-oqibat, gumanizm g'oyalarini yanada chuqur qaror toptirishga xizmat qiladigan muhim sanalardan biri bo'lib qolmoqda.

Umid YAXSHIBOYEV

## "ENG YAXSHI YOSH DASTURCHI"

Kombinatda mehnat qilayotgan, 35 yoshdan oshmagan yoshlar o'rtasida "Eng yaxshi yosh dasturchi" tanlovi o'tkazildi.

Ilk martda tashkil etilgan tanlovda dasturlash sohasiga qiziqadigan, turli kasbda ishlaydigan yoshlar ishtirok etishdi. Tanlovda ishtirokchilar 2 bosqichda o'z bilimlari bilan kuch sinashdilar. Dastlab 1-bosqichda yoshlarning nazariy bilimlari, 2-bosqichda amaliy bilimlari sinovdan o'tkazildi.

Yoshlar tanlov davomida dasturlash bo'yicha nazariy va amaliy tayyorgarlikka ega ekanliklarini namoyish etib, bilimlarini hakamlar hay'ati e'tiboriga havola etishdi. Tanlovda Bekzod Jo'rayev (LASUTP) g'olib chiqdi. 2-o'rinni Sherzod Jabborov (LASUTP), 3-o'rinni Doston Husainov (MSvaSREX) egalladi.

G'olib va sovrindorlar pul mukofotlari bilan taqdirlanishdi.



## OCHIQ SAYYOR SUD MAJLISIDA

## BIROVLARNING MULKIGA KO'Z OLAYTIRMANG!

Ba'zi kishilar ko'cha-kuyda biror nimani ko'rib qolishsa, uning egasini topganicha halovati bo'lmaydi. Yana shunday odamlar borki, ko'rgan narsasi kimniki bo'lishidan qat'iy nazar, uni sekingina iloji boricha hech kimga ko'rsatmay o'zlashtirib olishdan hech ham qo'rqmaydi. Bu insonlardan birini insofli, halol desak, ikkinchi toifani uning aksi deb ta'riflash mumkin.

"O'zmetkombinat" Ajda ba'zilarining xayolida bekor turgan narsalar ko'p-u ularni bildirmasdan kombinatdan olib chiqish orqali mo'may daromad olish mumkin bo'ladi. Biroq umumjamoa mulkini talon-taroj qilish javobgarlikka sabab bo'lishini, bunday ishlar fosh bo'lishini unutib qo'yadilar.

Ana shundaylardan biri Najbullo Tursunov ekan. U "Bekabad partnership development" MCHJda yuk tashuvchi bo'lib ishlaydi. Xizmat taqozasi bilan "O'zmetkombinat"

Aj hududlariga kirib turadi. U 2024-yil 16-iyun kuni "GAZ-53" rusumli avtomashinasida o'ziga yuklatilgan ish bilan kombinatga kiradi. Qaytishda kombinatning 4-sonli Nazorat o'tish joyidan chiqib ketayotgan vaqtida harbiy xizmatchilar tomonidan avtomashinasi tekshiriladi. Harbiylar uning avtomashinasining yukxonasidan yashirib qo'yilgan umumiy qiymati 44 509 so'm



bo'lgan misni topib olishadi. Ma'lum bo'lishicha u bu rangli metallni hech qanday hujjatlarsiz kombinat hududidan yashirincha olib chiqib ketayotgan ekan.

Bu ma'muriy ish 2024-yil 3-oktabr kuni sud majlisida ko'rib chiqildi. Unda huquqbuzar tariqasida so'roq qilingan N. Tursunov o'z aybiga iqror bo'ldi. Qilgan ishidan chin ko'ngildan pushaymondaligi, boshqa bu holat takrorlanmasligi, o'ziga tegishli xulosa chiqarib olganligi uchun suddan yengillik berishni so'radi.

Sud, ish hujjatlari bilan tanishib chiqib, huquqbuzarning aybi uning sud majlisida bergan iqrorlik ko'rsatmasidan tashqari, dastlabki surishtiruv organi tomonidan tuzilgan ma'muriy bayonnoma, ashyoviy dalilni olish bayonnomasi, tushuntirish xatlari hamda to'plangan ish hujjatlariga asosan to'liq o'z isbotini topganligini aniqladi.

Sud, huquqbuzarga nisbatan



jazo qo'llashda uning aybini yengillatuvchi tomonlarini inobatga olib, unga nisbatan qonun sanksiyasida nazarda tutilgan jarima jazosini qo'llashni lozim deb hisobladi.

Huquqbuzar O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 61-moddasi 1-qismi bilan aybli deb topildi. Shu asosda unga bazaviy hisoblash miqdorining 1 baravari miqdorida - 340 000 so'm jarima jazosi qo'llanildi.

**Farhod ZOKIROV,**  
**Jinoyat ishlari bo'yicha**  
**Bekobod shahar sudi sud'yasi.**

\* MULOHAZA \* MULOHAZA \* MULOHAZA \* MULOHAZA \* MULOHAZA \* MULOHAZA \* MULOHAZA \* MULOHAZA \* MULOHAZA \*

## "KVADROBER"LIK – TASHVISHLANISHGA ARZIYDIMI?

"KVADROBER"LIK  
NIMA?

"Kvadrober"ning asoschisi 2000-yillarning boshlarida to'rt oyoq bilan yugurishni boshlagan yaponiyalik yengil atletikachi Kenichi Ito hisoblanadi. U 2008-yilda 18,58 soniyada yuz metr ga g'ayrioddiy tarzda yugurib, jahon rekordini o'rnatgan.

"Kvadrober" (kvadro, ya'nito'rtva aerobika) bugungi kunda zamonaviy bolalar va o'spirinlar orasida mashhur bo'lmoqda. Ular hayvonlar, masalan, kuchuk, mushuk, maymun kabilar qiyofasidagi niqoblarni taqib, orqasiga dum bog'lab olib, quloq, panjali qo'lqop va niqoblar taqib, to'rt oyoqda hayvonlardek harakatlanadigan odamlar.

2019-yilda kvadroberka AQSHda ommabop bo'lib qoldi. Biroq, u faqat bu yilning bahorida, Rossiya, Belarus, Ukraina va Qozog'istonni qamrab oldi va haqiqatan ham ommaviy harakatga aylandi.

TOSHKENT  
KO'CHALARIDA HAM  
PAYDO BO'LDI

Achinarlisi, dunyoda bu kabi odam-hayvonlarning ko'payishi O'zbekistonga ham ta'sir qilishni boshladi. Yaqinda "kvadrober" Toshkent ko'chalarida ham paydo

bo'lgan. Ularning odamlarga ham hayvonlardek tashlanib qolayotgani aytiladi. Xususan, Toshkentda 10-oktabrda hayvonlar qiyofasidagi niqoblarni taqib olgan "kvadrober" uchratilgani, 11-oktabrda esa yana bir "kvadrober" yo'lovchilarga itga taqlid qilib hujum qilgan, voqeaga guvoh bo'lgan bola qattiq qo'rqib ketganligi ijtimoiy tarmoqlarda berildi.

Mazkur holatlar jamiyatda yurish-turish qoidalariga zid bo'lib, bu kabi xulq-atvorni mutlaqo qabul qilib bo'lmaydi. Ekspertlar fikricha, "kvadrober"lik bola o'ziga hayvonlarning agressiv harakatlarini qabul qilishiga, o'zini va atrofdagilarni jarohatlashiga, bolaning hali to'la shakllanmagan ruhiyatiga zarar yetishiga hamda uning jamiyatdan ajratilib qolishiga olib kelishi mumkin.

ULAR ORTIDA  
KATTALAR TURGAN  
BO'LSACHI?

Mutaxassislarning taxminicha "kvadrober"lik ortida bolalardan farqli o'laroq, nima qilayotganini juda yaxshi anglayotgan kattalar turgan bo'lishi ham mumkin. Ushbu fikrga asos sifatida mutaxassislar "kvadrober"lar uchun maxsus ozuqa, kiyim, maska va boshqa aksessuarlar allaqachon savdo rastalaridan o'rin olganini keltiradi.




Umuman olganda, "kvadrober"ning birdaniga ommalashuvi jiddiy xavotirlarga yetarlicha asos bo'la oladi. Ko'chako'ya, ommaviy manzillarda hayvon tusidagi o'smirlarning g'ayritabiiy harakatlari odamlarni cho'chitib, kishining "kvadrober"ga behosdan jismoniy zarar yetkazib qo'yish ehtimoli ham yo'q emas.

Ko'pchilik bitta joyda to'planib hayvonlarga taqlid qilib o'kiradi, masalan itlarga o'xshab vovullaydi akkilyadi. Bittasi boshlasa hammasi jo'r bo'ladi. Tashqaridan qaraganda, eshitganda juda ahmoqona, hatto qo'rqinchli ko'rinadi.

Endi tasavvur qilingki bu to'dani g'arazli niyatda bo'lgan kattalar boshqarayotgan bo'lsa nima bo'ladi? Bunday holatlarda har qanday kutilmagan holatlarga tayyor turish kerak. Aks holda falokatlar sodir bo'lishi ehtimoli keskin oshadi.

Bundan tashqari hayvonlarning niqoblarini kiyib olish o'g'irlik, yo'lto'sarlik va boshqa jinoyatlar uchun ham yaxshigina vosita



hisoblanadi. "Kvadrober"lar ko'payishi bilan jinoyatlar oshmaydi, deb hech kim kafolat bermaydi.

Ba'zi ota-onalar farzandlarining "kvadrober"ga qiziqishlarini rag'batlantirayotganini ham kuzatish mumkin. Ular nafaqat o'z farzandlariga kerakli tashqi kiyim, balki

maxsus oziq-ovqat, idish, uychalar sotib olishadi va hattoki bolalarni ipga boylab, sayr ham qildirishadi.

## EHTIYOT BO'LING!

Bola o'yin va voqelik o'rtasidagi chegarani yo'qotib qo'yishi mumkin. Uzoq vaqt davomida birovning qiyofasida bo'lish, yangi qiziqish tufayli o'qish bilan bog'liq muammolar chiqaradi. Odamlarga qilingan hujumlar bolani tajovuzkor qiladi.

"Ta'lim to'g'risida"gi qonunga muvofiq, voyaga yetmagan ta'lim oluvchilarning ota-onasi bolaning o'qishi, tarbiyalanishi, jismoniy, ma'naviy va intellektual rivojlanishi uchun mas'uldir. Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning "Mayda bezorilik" deb nomlangan 183-moddasiga muvofiq, ota-onalar yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar tomonidan voyaga yetmagan bolalarni tarbiyalash va ularga ta'lim berish borasidagi majburiyatlarni bajarmaslik, shu jumladan voyaga yetmagan bolalarning ma'muriy huquqbuzarlik sodir etishiga olib kelishi BHMning uch barobaridan 5 barobarigacha jarimaga tortishga yoki o'n besh sutkagacha muddatga ma'muriy qamoqqa olishga sabab bo'ladi. Har qanday holatga bag'rikenglik qilishdan avval kishi faqat o'ziga emas, yon-atrof va jamiyatga uning zarari va oqibatlari haqida ham o'ylashi zarur. Agar bugun "kvadrober"lar tishlamaydi, yemaydi, zarar bermaydi" deb ularning erkin harakatiga qo'yib bersak, ruhan zaif avlod yetishishiga, insoniy xislatlar esa yo'qolib borishiga sababchi bo'lib qolishimiz mumkin.

**Diyor ZULFIQOROV.**



## KOMPYUTERDA ISHLASHDA QOIDA YOKI ME'YORLAR BORMI?

**Sog'likka zarar yetkazishini bilsakda ish vaqtini ba'zan to'liq kompyuterda ishlab o'tkazamiz. Kompyuterda qancha ishlash bo'yicha biror qoida yoki me'yorlar belgilanmaganmi?**

**S. Alimova.**

O'zbekiston Respublikasining Bosh sanitar vrachi tomonidan tasdiqlangan "Shaxsiy kompyuterlar, videodispleyli terminallar va orgtexnika bilan ishlashda sanitar qoidalar va normalar" belgilangan (2007-yil 29-mart. 0224-07-son). Bu sanitar qoidalar va normalarning 7-moddasi 2-bandida kompyuterda ishlashga "Mehnat sharoitlari, mehnat faoliyatining turi

va toifasi ishchilarning markaziy asab tizimini, tayanch-harakat tizimini, ko'rish organlarini



haddan tashqari zo'riqishiga, umumiy charchoqning rivojlanishiga va hokazolarga olib kelishi mumkin" deb baho berilgan.

Uning 7-moddasi 5-bandida tartibga solinadigan tanaffuslarsiz kompyuterda uzluksiz ishlashning davomiyligi 2 soatdan, kompyuter uskunalarida umumiy ish vaqti 4 soatdan oshmasligi kerakligi belgilangan. Shu moddaning 6-bandida tartibga solinadigan tanaffuslar ish boshlangandan boshlab har 2 soatda 15 daqiqa davom etishi va tushlik tanaffusidan keyin har bir ish soatidan so'ng 15 daqiqa davom etishi belgilanishi kerak, deyilgan.

## TA'TILDAGI XODIMNI ISHDAN BO'SHATISH MUMKINMI?

**Ishchi-xodim ta'tilda bo'lgan vaqtda ish beruvchining tashabbusiga ko'ra yoki o'zining arizasiga asosan uni ishdan bo'shatsa bo'ladimi?**

**K. Murodov.**

Mehnat kodeksining 215-moddasi 1-qismiga asosan ushbu kodeksning 213-moddasida nazarda tutilgan ta'tillarda bo'lgan davrda xodimning ish o'rnini (lavozimi) saqlanib qoladi va xodim bilan tuzilgan mehnat shartnomasini ish beruvchining tashabbusiga ko'ra bekor qilishga yo'l qo'yilmaydi. Ya'ni qonun ta'tilda bo'lgan xodim bilan mehnat shartnomasini ish beruvchining xohishiga

ko'ra bekor qilishni ta'qiqlaydi.

Biroq Mehnat kodeksining 215-moddasi 2-qismida ta'til davrida xodimning ish o'rnini (lavozimini) saqlab qolish va xodim bilan tuzilgan mehnat shartnomasini bekor qilishga yo'l qo'yilmasligi to'g'risidagi ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan qoidalar bundan mustasno. Mehnat shartnomasi ish beruvchining tashabbusiga ko'ra ushbu kodeks 161-moddasi 2-qismi 1-bandiga muvofiq (ya'ni tashkilotni tugatish holatlari) hamda ish beruvchining tashabbusi bilan bog'liq bo'lmagan asoslarga ko'ra bekor qilinganda qo'llanilmaydi. Ya'ni xodimni o'z tashabbusiga ko'ra mehnat shartnomasini bekor qilishga kodeks to'g'ridan to'g'ri yo'l qo'yadi.

Yanada to'liqroq aytadigan bo'lsak, mehnat shartnomasini xodimning tashabbusiga ko'ra bekor qilish ham boshqa asoslar kabi ish beruvchi tashabbusi bilan bekor qilish bilan bog'liq bo'lmagan holat hisoblanadi. Ya'ni agar xodimning o'zi ta'til davrida mehnat shartnomasini bekor qilish tashabbusi bilan chiqadigan bo'lsa, ish beruvchi bemalol mehnat shartnomasini odatiy shaklda Mehnat kodeksining 160-moddasi tartibida bekor qilishi mumkin.



## EGALIK HUQUQINI QAYSI HUJJAT TASDIQLAYDI?

**Yer uchastkasiga bo'lgan huquqni tasdiqlovchi hujjatlar ko'payib ketdi. Ularning hammasi birgalikda yer uchastkamizga bo'lgan huquqni tasdiqlaydimi yoki ayrimlarimi?**

**S. Almatov.**

Menga fuqarolardan yerga bo'lgan huquqni belgilovchi hujjatlar haqida ma'lumot berishimni so'rab ko'p murojaat qilishadi. Yer kodeksining 33-moddasida yer uchastkasiga bo'lgan huquqni tasdiqlovchi hujjatlar keltirilgan bo'lib unga ko'ra, Ko'chmas mulk ob'ektlariga bo'lgan huquqlarning davlat reestridan elektron ko'chirma yer uchastkasiga bo'lgan huquqni tasdiqlovchi hujjatdir deb belgilangan.

Ko'chmas mulk ob'ektlariga bo'lgan huquqlarning davlat reestridan elektron ko'chirmasi yer uchastkasiga bo'lgan mulk huquqini beruvchi davlat orderi, viloyat va Toshkent shahar hokimining yer uchastkasini doimiy foydalanishga berish to'g'risidagi qarori, ijara shartnomasi, yer uchastkasi berilgan paytdagi qonunchilikka muvofiq yer uchastkasini berish vakolatiga ega bo'lgan tashkilotlar va mansabdor shaxslarning



hujjatlari, O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi huzuridagi Kadastr agentligining Davlat kadastrlari palatasi bo'linmalarining yer uchastkasini bo'lish haqidagi hujjatlari, sud qarori, oldi-sotdi shartnomasi, mulkdorlarning yoki ular vakolat bergan shaxslarning qarori asosida beriladi.

Ya'ni sizda bittagina Ko'chmas mulk ob'ektlariga bo'lgan huquqlarning davlat reestridan elektron ko'chirmaning o'zi bo'lishi yer uchastkasiga bo'lgan huquqni tasdiqlovchi hujjat hisoblanadi. Boshqa hech bir hujjat yerga bo'lgan huquqni vujudga keltirmaydi.

**Xodim 6 oydan buyon mehnatga qobiliyatsizlik davrida bo'lsa xodimga bu vaqt mehnat stajiga o'tadimi?**

**S. Azizov.**

## MEHNAT STAJI TO'XTATILMAYDIMI?

Avvalombor shuni bilib olish kerakki mehnatga layoqatsizlik davri cho'zilib ketsa xodim tibbiy-ijtimoiy ekspert komissiyasiga yuboriladi.

Aynan bir kasallik bo'yicha vaqtincha mehnatga layoqatsizlik davri uzluksiz to'rt oyni yoki tanaffus bilan o'n ikki oy mobaynida jami olti oyni tashkil qilsa, sil kasalligi birinchi marta aniqlanganda vaqtincha mehnatga layoqatsizlik davri kasallik aniqlangan kundan boshlab kamida o'n oyni tashkil qilsa, silga qarshi kurashish muassasasida hisobda turgan bemorda asosiy kasallik kuchayganda vaqtincha mehnatga layoqatsizlik boshlangandan keyin mehnatga layoqatsizlik davri kamida olti oyni tashkil qilgan holatlarda xodim tibbiy-ijtimoiy ekspert komissiyasi ko'rigiga yo'llanadi. Komissiyaning xulosasiga ko'ra bemorga nogironlik guruhi berilishi mumkin.

Yuqorida qisqacha mehnatga qobiliyatsizlik davri haqida ma'lumot berib o'tdik. Endi asosiy masalaga qaytsak, 6 oydan buyon mehnatga layoqatsizlik davrida bo'lgan odamning kasallik davri mehnat stajiga o'tadimi degan o'rinli savol tug'iladi. Mehnat kodeksining 226-moddasida xodim haqiqatda ishlamagan, lekin mehnat to'g'risidagi qonunchilikka va mehnat haqidagi boshqa huquqiy hujjatlarga, mehnat shartnomasiga muvofiq uning ish o'rnini (lavozimi) saqlangan vaqt, ta'til olish huquqini beruvchi ish stajiga kirishi belgilangan. Ya'ni xodimning mehnatga layoqatsizlik davrida xodim bilan mehnat shartnomasi bekor bo'lmagan, uning ish joyi saqlangan shu sababli bu 6 oylik davri ish stajiga kiradi.

## PULINI OLSA BO'LADIMI?

**Pulga muhtoj bo'lib qolganligim uchun 5 yillik foydalanilmay kelgan ta'tillarimning pulini kompensatsiya qilib olsam bo'ladimi?**

**F. Eshonqulov.**

Mehnat kodeksining 234-moddasiga asosan mehnat shartnomasi bekor qilinganda xodimga barcha foydalanilmagan har yilgi asosiy va qo'shimcha mehnat ta'tillari uchun pulli kompensatsiya to'lanadi. Bu yerda e'tibor qilinishi kerakki, shartnoma bekor qilinganda deyilmoqda. Ya'ni qachonki mehnat shartnomasi bekor qilinganda xodimga foydalanilmagan ta'tillari uchun pullik kompensatsiya to'lanadi. Ya'ni foydalanilmagan ta'tilni olishda xodimning moddiy ahvoli rol o'ynamaydi. Biroq bu yerda bir yo'l orqali xodimga o'sha foydalanilmay qolib ketgan ta'til pullarini to'lab berish mumkin. U ham bo'lsa xodimni ishdan bo'shatib, keyin qaytib ishga olish orqali.

**Savollarga huquqshunos Inomjon ESHONQULOV javob berdi.**



# DAYDI ITLARDAN EHTIYOT BO'LING!

Bugungi kunda odamlar hayoti uchun xavfli bo'lgan daydi itlar ko'payib qolgan. Mahallalarda egasiz itlar bemalol "sayr" qilib yuribdi. Itlarni qator korxonalar, tashkilot, muassasalar binolari atrofida ertalab va kechki paytlarda kuzatish mumkin. Kombinatimizda ham daydi itlar ancha ko'payib qolgan. Ular kombinat hududida daydib yurishadi.

Ayniqsa, kechqurunlari sayyoq itlarning dastidan yolg'iz yurish xavotirli. Sababi itlar to'dalashib yuradi. Ular odamlarga tashlanib qolmaydi, deb hech kim kafolat berolmaydi.

Bu sayyoq itlarning quturish yoki boshqa kasalliklarga chalinganmi yoki yo'qligini hech kim bilmaydi. Mabodo biror kishini, ayniqsa, yosh bolalarni tishlab olsa nima bo'ladi? It quturgan bo'lsachi? Uning oqibati ayanchli tugashi mumkin. Chunki, odamlarning 96 foizi itlar orqali quturish kasalligiga chalinadi.

Shuning uchun ham har kim o'zini ehtiyot qilishi zarur. Shu bilan birga quturish kasalligi nima, uning oldini olish choralarini bilib olishi kerak. Quyida Bekobod shahar Sanepid bo'limi epidemiolog vrach yordamchisi Olim Hamroqulovning quturish kasalligi va unga qarshi kurashish chora-tadbirlari haqidagi maqolasi bilan tanishsangiz foydadan holi bo'lmaydi.



## QUTURISH KASALLIGI VA UNGA QARSHI KURASHISH

Butunjahon hayvonlar salomatligi va Jahon sog'liqni saqlash tashkilotlarining ma'lumotiga ko'ra, oxirgi yillarda dunyoning ko'pgina davlatlarida inson va hayvonlar uchun umumiy bo'lgan gripp, o'lat, kuydirgi, quturish va boshqa tur kasalliklarning kelib chiqayotganligi va buning oqibatida ko'plab odamlarning kasallanishi va hayvonlarning nobud bo'lishi kuzatilmoqda.

Shunday kasalliklardan biri bu quturish kasalligidir.

### OQIBATI FOJIALI BO'LADI

Quturish kasalligi o'tkir yuqumli zoonoz (hayvonlardan odamga yuquvchi) xastalik hisoblanib, kasallikni davolash va oldini olish choralarini o'z vaqtida zudlik bilan ko'rilmasa, natijasi fojiali o'lim bilan yakun topuvchi xastalikdir. Ushbu kasallik dunyoning 150 dan ortiq mamlakatlarida qayd qilinib,



undan Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasida har yili 66 mingdan ziyod, faqat Hindistonda 30 ming odam o'ladi. Demak, dunyoda har kuni 180 kishi, 8 daqiqada 1 kishi quturish tufayli olamdan o'tadi. Kasallik qo'zg'atuvchisi manbai, asosan yovvoyi hayvonlar hisoblanadi. It va mushuklar esa ko'pincha kasallikni tarqatuvchi manbalar hisoblanadi.

Quturish kasalligiga eng sezgir tulki, bo'ri, kalamush va sichqonlar,

yuqori sezgir mushuk, olmaxon, ko'rshapalak, sassiq kuzan, quyon, dengiz cho'chqalari hamda o'rtacha sezgir it, ot, qo'y, echki, maymun va odamlar hisoblanadi. Ushbu kasallikka eng past sezgir parrandalardir. Sovuq qonli jonivorlar quturmaydi.

### QUTURISHNING YUQISH YO'LLARI

Quturish kasalligi virusi odam yoki hayvon organizmiga quturgan uy hayvonlari, daydib yurgan it, mushuk va yovvoyi hayvonlar so'lagi orqali yuqadi. Shuni aytib o'tish kerakki hayvonning so'lagi faqat kasallik yuzaga chiqqan davrda emas, balki kasallik yashirin davrida ekanligidayoq kasallik yuqumli bo'ladi. Virus yuqqan quturgan hayvon odamni tishlaganda yoki uning so'lagi tirnalgan, shilingan, jarohatlangan teriga, ko'z, burun, og'iz, tomoq shilliq pardalariga tekkanda viruslar organizmga o'tadi va kasallik yuqadi. Bundan tashqari quturib o'lgan daydi it va sut emizuvchi boshqa hayvonlar tana to'qimasi bilan oziqlangan yirtqich qushlar ham kasallikni yuqtirishi mumkin (o'sha qush inson bilan muloqatda bo'lganda).


### KASALLIK BELGILARI

Kasallikning yashirin davri

odamlarda 12-14 kundan to bir oygacha cho'zilishi mumkin, ayrim hollarda bir yildan ham oshadi. Biroq aksari quturgan hayvon tishlagandan so'ng yoki terining tirnalgan, jarohat olgan yeriga uning so'lagi tekkandan boshlab, o'tgan 3 hafta bilan 3 oy o'rtasida kasallik ko'proq yuzaga keladi. Hayvon odam tanasining yuqori qismlaridan (bosh, bo'yin, yuz, ko'krak qafasi, qo'l barmoqlari) markaziy nerv tizimiga yaqin joylardan tishlashi kasallikning tez avj olishiga olib keladi. Yashirin davrda odam o'zini sog'lom his etadi (Hayvonlar ham). Yashirin davrdan so'ng odam miyasiga g'alati ahmoqona fikrlar keladi, be'mani tushlar ko'radi, juda ham g'azabkor bo'ladi, aqldan ozadi. Suvdan, shamoldan va yorug'likdan qo'rqadi. O'zini qorong'u joyga uradi, ko'ziga har xil hayvonlar ko'rinadi. Kasallik avjiga chiqqanda so'lak ajrala boshlaydi, yutinish, nafas olish qiyinlashadi. Kasallik o'lim bilan yakun topadi.

### KASALLIKNING OLDINI OLISH CHORALARI

Barcha uy hayvonlari quturish kasalligiga qarshi emlanishi kerak. Hayvon tishlaganda yoki uning so'lagi tekkan har bir kishi zudlik



bilan mutaxassis shifokorga (xirurg, travmatolog, rabiolog) murojaat qilishi hamda zarur deb topsa, quturish kasalligiga qarshi emlanishi shart. Emlash qancha erta boshlansa kasallikning oldi tez olinadi.

Emlash kursi to'la tugashi va to'liq olinishi kerak, emlangandan so'ng 6 oy davomida spirtli ichimliklar iste'mol qilish man etiladi.

Agar odamni hayvon tishlasa yoki so'lagi teriga tegsa shu zahoti oqar suvda sovunlab yuvib tashlash, jarohat atrofiga joyiga 70 foizli spirt, yod, brilliant yashili boshqa dezinfeksiyalovchi vositalar surtish va tezlikda shifoxonaning jarrohlik yoki travmatologiya bo'limiga murojaat etish kerak.

Mahalla va guzarlarda daydi it hamda mushuklarning paydo bo'lishiga yo'l qo'ymaslik uchun veterinariya xizmati va shahar Obodonlashtirish boshqarmasining "Qarovsiz qolgan hayvonlarni tutish brigadasi"ga xabar berish lozim.

**Olim HAMROQULOV,**  
Bekobod shahar  
Sanitariya epidemiologiya  
bo'limi epidemiolog  
vrach yordamchisi.

## VAZIFALAR BELGILAB BERILGAN

Respublikada quturish kasalligining kelib chiqishida asosiy sababchi bo'lgan qarovsiz va daydi hayvonlar tomonidan odam va hayvonlarga jarohat yetkazishining oldini olish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 8-iyuldagi "Qarovsiz qolgan hayvonlarni tutish va saqlash bilan bog'liq xizmatlar faoliyatini takomillash-tirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 202-sonli qarori qabul qilingan.

Mazkur qaror bilan manfaatdor vazirlik va idoralarga amalga oshirilishi kerak bo'lgan vazir-

falar hamda aholi punktlarida it saqlash qoidalari va hayvon egalari uchun jumladan:

- Itlarni o'z vaqtida quturish kasalligiga qarshi emlatish;
- bolalarning itlar bilan o'ynashiga yo'l qo'ymaslik;
- xonadondagi itlarni ko'chaga qarovsiz qo'yib yubormaslik;
- itlarni ko'chaga bo'yinbog' va tum-

shuqbog'siz olib chiqimaslik;

- odam yoki hayvonga jarohat yetkazgan itni albatta veterinar kuzatuviga olib borish;
- itlarning qo'shnilar tinchligini buzib tinimsiz vovillashiga yo'l qo'ymaslik choralarini ko'rish;
- hayvonlar quturish kasalligiga chalinganligi haqidagi har bir shubhalanishda darhol veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo'limlarini xabardor qilish va ularni ajratib qo'yish uchun zarur choralar ko'rish kabi majburiyatlar yuklatilgan.



FUTBOL: SUPERLIGA\* FUTBOL: SUPERLIGA\* FUTBOL: SUPERLIGA\* FUTBOL: SUPERLIGA\* FUTBOL: SUPERLIGA\* FUTBOL: SUPERLIGA\*

## JANGOVAR DURANG

Olmaligda 23-turda o'tkazilgan poytaxt viloyati derbisi bu gal ham juda murosasiz va qiziqarli o'tdi. Birinchi taymda haqiqiy mezbonlar biroz ustunlik qilgan bo'lsa, ikkinchi taymda tashabbus nominal maydon egalari tomoniga o'tdi. Bu ushbu bo'limlarning natijasida ham o'z aksini topdi.

"Metallurg" va OKMK o'yinining 4-daqiqasidayoq bekobodliklar hisobni ochishga ham muvaffaq bo'lishdi. Standart vaziyatdan Marko Milichkovich olmalikliklar darvozasiga to'p yo'lladi. Javohir Ilyosovning jon holatda to'pga tashlanishi oqibatida to'p darvoza to'siniga tekkan holatda maydonga qaytib tushdi.



Unga birinchi bo'lib yetib kelgan Odilbek Abdumajidov xotirjamlik bilan to'pni darvoza to'riga yo'lladi. Ammo jarima to'pi tepilayotganda Abdumajidov qolganlardan ilgariroq jarima maydoni ichiga kirib kelgan ekan, shu bois gol inobatga olinmadi.

Bu holat olmalikliklarni sergak torttirdi. Natijada markazni qo'lga olgan olmalikliklar "Metallurg" darvozasi yonida ketma-ket xavfli vaziyatlarni sodir eta boshladi. Bu esa 30-daqiqada o'z samarasini berdi. Kleydi Datsi boshlab bergan hujumni Nodirbek Abdurazzoqov golga aylantirdi - 0:1.

"Metallurg" esa ikkinchi taymga jangovar holatda qaytdi. Tanaffusda murabbiylar bergan ko'rsatmalarga to'liq amal qilgan bekobodliklar OKMK futbolchilarini jarima maydoniga "qamab qo'ydi". Va nihoyat bu ustunlikni bekobodliklar 80-daqiqada gol bilan tasdiqlashdi. OKMK posboni Javohir Ilyosov "Metallurg" sardori Zabixillo O'rinboyevning zarbasidan so'ng to'pni amallab qaytarishga erishdi. Ammo to'pga birinchi bo'lib yetib kelgan Abrorbek Toshqo'ziyev hisobni tenglashtirdi - 1:1. Bu natija esa o'yin oxirigacha o'zgarmay qoldi.

## HUJUMDA ANIQLIK YETISHMADI

Raqibga yutqazmaslik aslida ijobiy holat. Ammo Superligada jon saqlab qolish uchun kurash olib borayotgan jamoamizning ko'p sonli duranglari na futbolchilarning o'zini, na muxlislarini xursand qilmayapti.

Superliganing 24-turida Toshkentda asosiy raqiblardan biri - "Bunyodkor"ga qarshi o'yinni juda ko'tarinki, tartibli holatda o'tkazib, mag'lubiyatni durangga aylantirgan bo'lsa-da, "Metallurg" futbolchilari maydonni tushkun kayfiyatda tark etishdi. Zero kuzda har bitta boy berilgan ochkarning qiymati "oltinga" teng bo'lmoqda.

Uchrashuvning ilk soniyalaridan o'yin oxirigacha to'p nazoratida "Metallurg" raqibga yutqazmadi. Vaziyatlarni sodir etishda hatto maydon egalari nisbatan ustunlikka ham ega bo'ldi. Faqat ulardan foydalanish samaradorligida afsuski oqsash kuzatilyapti. Bu safar ham shunday bo'ldi. Birinchi taym so'nggiga kelganda "Bunyodkor" darvozasi yonida ketma-ket xavfli vaziyatlarni yaratdik. Jamoa sardori Zabixillo O'rinboyevning

jarimadan tepgan to'pini mezbonlar qiyinchilik bilan qaytarishdi va qarshi hujumda gol urib ketishdi. Bu vaziyatda himoyachilarimiz o'yindan tashqari holatni yaratishda yanglishishdi - 0:1.

Tanaffusdan keyin tashabbusni to'liq qo'lga olgan bekobodliklar 69-daqiqada o'z maqsadlariga erishishdi. Milichkovichning burchakdan uzatib bergan to'pini Odil Abdumajidov boshi bilan urib raqib darvozasi to'riga tushirdi - 1:1. Bu natija esa o'yin oxirigacha o'zgarmay qoldi.



## JUDA MUHIM G'ALABA

24-noyabr kuni jamoamiz 25-turni Olmaligda - "Surxon"ga qarshi o'tkazib, juda muhim g'alabani qo'lga kiritdi. Bahs taqdirini yagona gol hal etdi.

Birinchi taymda golga tortadigan vaziyatlar deyarli sodir bo'lmadi. Tanaffusdan keyin esa bekobodliklar to'liq tashabbusga ega bo'lishdi. Natija esa ko'p kuttirmadi. 52-daqiqadayoq standart vaziyat raqib darvozasining ishg'ol etilishi bilan yakunlandi. Burchakdan uzatib berilgan to'pni Kerim Palich o'ziga to'g'rilab oldi va darvoza tomon zarba berdi. Olis burchakka yaqin joyda turgan Oleksandr Kucherenko esa to'p yo'nalishini o'zgartirib yubordi va

hisobni ochdi - 1:0.

Avvalgi uchrashuvlardan farqli ravishda "Metallurg" bu gal gol urgach, "himoyaga yotib olmadi". Aksincha to'pni raqibga topshirgan holda tezkor qarshi hujum taktikasiga o'tdi. Buning natijasida bekobodliklar yana kamida ikki bor "Surxon" darvozasiga gol urish imkoniyatiga ega bo'ldi. Biroq bu vaziyatlarda hujum chizig'i vakillarimizga omad kulib boqmad. Bu g'alabadan so'ng Superligada jon saqlab qolish imkoniyati yaqqol paydo bo'ldi.

Mavsumning oxirgi o'yinida "Metallurg" 30-noyabrda mamlakat chempioni "Nasaf"ga qarshi maydonga tushadi.



"O'ZMETKOMBINAT" AJNING  
80 YILLIGIGA BAG'ISHLANDI

## G'OLIBLAR ANIQLANDI

O'zbekiston metallurgiya kombinatining 80 yilligiga bag'ishlab "Metallurg" futbol akademiyasi tomonidan 2012-hamda 2013-yilda tug'ilgan o'smirlar jamoalari o'rtasida "Metall Cup" musobaqasi bo'lib o'tdi. Turnirda mamlakatimizning olti akademiyasidan jamoalar ishtirok etishdi. Bular mezbonlar - "Metallurg", shuningdek, "Nasaf" (Qarshi), "Spartak" (Andijon), "Vunderkind" (Asaka), Kogon sport maktabi hamda "Omad" (Denov) jamoalaridir. Mazkur musobaqada Qirg'izistondan "Barselona" futbol akademiyasi, Tojikistondan "Xo'jambie" hamda "Salar" futbol klublari akademiyasi va Turkmanistondan "Oltin toj" futbol klubi akademiyasi jamoalari qatnashishdi.

U11 toifasi finalida Kogon sport maktabi tarbiyalanuvchilari musobaqa mezbonlari - "Metallurg" akademiyasi o'smirlariga qarshi maydonga chiqdi. Kogonliklar yarim finalda Tojikistonning "Solor" jamoasini, bekobodliklar esa Qirg'izistonning "Barselona" futbol akademiyasi jamoasini mag'lubiyatga uchratgandi. Hal qiluvchi final o'yinining asosiy vaqti 1:1 hisobida durang natija bilan tugadi. O'yindan keyingi penaltilar seriyasida esa omad kogonliklarga kulib boqdi - 7:6.

U12 toifasidagi o'smirlar musobaqasida esa omad "Metallurg" yoshlariga kulib boqdi. Yarim finalda Andijonning "Spartak" jamoasini mag'lubiyatga uchratgan bekobodliklar hal qiluvchi o'yinda "Nasaf"dan ustun keldi. Bu o'yinda ham asosiy vaqtda kuchlar teng kelgach, penaltilar seriyasiga murojaat etildi. Unda esa "Metallurg" o'smirlari 4:3 hisobida zafar quchishdi.

Xalqaro turnir yakunida g'olib va sovrindorlarga medal va diplomlar, esdalik sovg'alari topshirildi. Shuningdek, turli nominatsiyalar bo'yicha laureatlar aniqlandi.

MILLIY KURASH

## YOSHLAR BELLASHGANDA

"Metallurg" sport majmuasida kombinatda mehnat qilayotgan 35 yoshgacha bo'lgan yoshlar o'rtasida sportning milliy kurash turi bo'yicha musobaqa bo'lib o'tdi. Yoshlar 70, 80 va 90 kilogrammdan oshiq vazn toifasida olimpiya tizimi yo'nalishida gilamda o'zaro bellashishdi.

Qiziqarli o'tgan bellashuvlarda 70 kilogramm vazn toifasida Ijroiya apparatidan Asadbek Abdurahmonov g'olib chiqdi. Dilyor Allayorov (EPEB) 2-o'rinni, Shahboz Jalilov (EnB) 3-o'rinni egalladi.

80 kilogramm vaznlilar o'rtasida kurashchilar o'rtasida Navli prokatlash bo'linmasidan Baxtiyor Odilovga teng keladiganlar topilmadi. 2-o'rinni Aziz Shamsiyev (NPB) 3-o'rinni Abdulla Mahkamov (MUTB) qo'lga kiritdi.

90 kilogrammdan oshiq vaznlilar musobaqasida Navli prokatlash bo'linmasidan Sarvar Do'smatov barcha raqiblaridan ustun kelib 1-o'rin sohibi bo'ldi. 2-o'rin Arsen Tairov (ZPB), 3-o'rin Azamat Tursunqulovga (IO'MICHB) nasib qildi.

G'olib va sovrindorlar musobaqa nizomida ko'rsatilganidek pul mukofotlari bilan taqdirlanishdi.



## QANDAY BUNI UDDALADING?

Kunlarning birida qurbaqalarning to'ldasidan ikki qurbaqa chuqurlikka tushib ketibdi. Barcha qurbaqalar chuqurlik tepasida jamlanib olib:

– Bo'ldi endi, shu yerda o'lib ketasizlar... hadeb sakrayverishdan foyda yo'q – der edilar. Uzoqqa bormay, ikki qurbaqaning biri qo'rquv va qattiq tushkunlik oqibatida nobud bo'ldi. Ikkinchi qurbaqa esa, tinmay sakrashda davom etar edi. Har safar sakraganda, ilgargisidan balandroq sakrar edi. Ammo, yuqoridagi qurbaqalar hamon:

– Bo'ldi qil endi. Foydasi yo'q – deyishar edilar.

Ko'p o'tmay, boyagi qurbaqa chuqurdan chiqishga muvaffaq bo'ldi. Tepadagi qurbaqalar qattiq taajjubda edilar. So'ng undan so'rashdi:

– Qanday buni uddalay olding?

U jim turardi. Keyin bilsalar, uning quloqlari eshitmas ekan. Har safar uni sakrashdan qaytarganlarida, qo'llab-quvvatlamodalar deb o'ylab, bu mushkul ishning uddasidan chiqqan ekan.

**“Balki, eng zo'ri bo'lishingizga insonlarning siz haqingizdagi gaplari to'sqinlik qilayotgandir?”**

**Jaloliddin RUMIY.**

## NEGA BUNDA BO'LDI?



Farzandlarini juda yaxshi ko'radigan, ularning hayotda qoqilmay o'sishini istaydigan ota-ona bor edi. Ota-ona farzandlariga doimo g'amxo'rlik qilishdi, bolalarini umrning hamma so'qmoqlaridan o'zlari olib o'tish-

di. Farzandlariga muttasil to'g'ri yo'lni ko'rsatib, ularning birorta ham qiyinchilik ko'rmasliklariga jon-dildan harakat qilishdi.

Ammo... Ammo farzandlar noqobil bo'lib ulg'aydilar.

– O, hayot! – dedi ota-onaning bundan qalbi g'amga to'lib. – Nega bunday bo'ldi?! Biz buni istamagan edik-ku!

Shunda hayot javob bergan ekan:

– Endi meni aybdor sanamang. Axir ularni tarbiyalashimga o'zingiz yo'l qo'ymadingiz...

**Yaponchadan Bayram  
Ali tarjimasini.**



## HIKMATLAR SANDIG'IDAN

Uchta narsa hech qachon qaytib kelmaydi: **Vaqt. Aytilgan so'z. Imkoniyat.**

Uch narsani yo'qotib bo'lmaydi: **Tinchlik. Umid. G'urur.**

Uch narsa qadrli: **Sevgi. Ishonch. Halollik.**

Uch narsa o'tkinchi: **Mansab. Omad. Barqarorlik.**

Uch narsa odam qandayligini aniqlaydi: **Mehnat. To'g'rilik. Erishilgan natija.**

Uch narsa odamni harob qiladi: **Kibr. Harom. Zulm.**

Uchta gapni aytish qiyin: **Seni sevaman. Kechir. Yordam ber.**

DONOLAR  
DEYDIKI...

Hech qanday xato qilmagan odam, hech nima qilmagan odamdur. Bu hayotdagi eng katta xato: o'zingni xatosiz hisoblamodir.

**Yunus Emro.**  
\*\*\*

Biz juda tez qariymiz, aqlimiz esa juda kech kiradi. Umr fojiasi ana shunda.

**Benjamin Franklin.**  
\*\*\*

Boshqalarga yordam berishga intiladigan odamgina muvaffaqiyatga erishadi. Faqat o'z foydasini o'ylaydiganlar esa mag'lubiyatga uchrayveradi.

**Brayan Treysi.**  
\*\*\*

Bolalar hech qachon kattalarga quloq solishmagan bo'lishsa ham, ular kattalarga taqlid qilishda hech qachon xato qilishmagan.

**Jeyms Boldvin.**  
\*\*\*

Muvaffaqiyat asosiy maqsadingiz ko'z oldingizda turganda keladi. Maqsadingiz ko'zdan nari ketishi bilan muvaffaqiyat ham ketadi.

**Bernard Shou.**

## BILIMINGIZNI SINANG!

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi nechta bo'lim, bob va moddadan iborat?

\*\*\*

Konstitutsiya atamasi lotincha "Konstitutio" so'zidan olingan. U qanday ma'noni anglatadi?

\*\*\*

Dastlabki Konstitutsiya qachon va qaysi davlatda qabul qilingan?

\*\*\*

O'tgan 80 yilda kombinatdan necha kishi Mehnat Qahramoni unvonini olgan va ular kimlar?

\*\*\*

Biz uni har kuni 2 marotaba tatib ko'ramiz, lekin yemaymiz. U nima?

\*\*\*

O'zbekiston metallurgiya zavodiga kim ikki marta direktor bo'lgan?

\*\*\*

Marten pechlarida dastlab necha tonnadan po'lat eritilgan, keyinchalik bu ko'rsatkich qanchaga yetkazilgan?

Qaysi narsani xomligicha yeb bo'lmaydi va pishgandan keyin bari-bir tashlab yuboriladi?

**Javoblarni gazetaning keyingi sonidan bilib olasiz.**

**Gazetaning o'tgan sonidagi savollarning javoblari.**

\* 1994-yili korxonamiz o'zining 50 yillik yubileyini o'tkazdi. Shu munosabat bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoniga binoan zavod "Faxriy Yorliq" bilan taqdirlandi.

\* Kombinatga ko'p yillar rahbarlik qilgan Aleksandr Farmonov.

\* Ona suti.

\* Super yelim kimyoviy ta'sirga kirishishi uchun kislorod kerak. Uning idishi ichida esa kislorod bo'lmaydi. Shuning uchun super yelim idishiga yopishib qolmaydi.

\* Mol dunyo va ilm. Qancha kupaygani sari shuncha ozdek tuyulaveradi.



Shifokor huzuriga kelgan bemordan so'radi:

– Aroq ichasizmi?

– Rahmat, doktor ichmayman. Hozir to'g'ri restorandan kelyapman, to'yib ichganman.

\*\*\*

Sport do'konida.

– Parashyut bormi?

– Bor.

– Yaxshisidan bering.

– Mana, buni oling. Kafolati bor. Sakragan vaqtingizda ochilmasa, olib kelavering, almashtirib beramiz...

\*\*\*

Bir dehqon sabzi ekib, hosilini sotib yurarkan. Lekin hecham tug'ilib o'sgan qishlog'iga bormasakan. Chunki uning qishlog'ida hamma bir-biriga laqab qo'yarkan. Bir kuni dehqon hamqishloq tanishini ko'rib qolibdi.

– Nega qishloqqa bormaysan?, – dedi tanishi.

– Chunki menga ham laqab qo'yishadi, – debdi dehqon.

Shunda hamqishlog'i:

– Seni laqabing allaqachon "quyon" bo'pketgan, – dermish.

\*\*\*

Bir kishi qari donishmanddan:

– Ayollarni yaxshi yoki yomonligini qanday ajratsa bo'ladi? – deb so'rabdi.

– Ularning gapirishidan – javob beribdi donishmand.

– Agar gapirmasa-chi? – so'rabdi kishi.

Shunda donishmand:

– Shuncha yil yashab, bunday yaxshi ayolni uchratmaganman! – dermish...

Po'lat o'tda toblanadi, odam mehnatda

**Metallurg  
Minbari**

**MUASSIS:**  
O'zbekiston metallurgiya  
kombinati aksiyadorlik jamiyati.

[WWW.uzbeksteel.uz](http://WWW.uzbeksteel.uz)

**Muharrir:**  
Ismadiyor MAMATQULOVA

TAHRIRIYAT: Bekobod shahar  
"O' zmetkombinat"  
aksiyadorlik jamiyatining  
Metallurglar madaniyat saroyida  
joylashgan.

Tel: 10-17, 70-214-19-24

Gazeta oyda bir marta  
chiqadi.

Gazeta tahririyat kompyuterida  
terilib, sahifalandi va "Niso  
nashriyot va matbaa uyi" MCHJ  
bosmaxonasida chop etildi.  
Bosmaxona manzili:  
O'rta Chirchiq tumani "Mash'al"  
mahallasi, "Markaziy" ko'cha, 1-uy.

**Sahifalovchi:**  
Inom Xojimurodov

Bosishga topshirish vaqti 17.00  
Bosishga topshirildi-14.20  
Adadi 600. Bichimi A-3.  
ISSN 2181-645X  
Gazeta "O' zmetkombinat"  
Ajda bepul tarqatiladi.

Buyurtma №